


IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 8 675,3 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 259,8 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 7 104,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>o‘sish sur’ati, %</i> | <i>umumiylajmaga nisbatan % da</i> |
|---------------------------------------------------------|-------------------|--------------------------|------------------------------------|
| Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar | 8 675,3 | 259,8 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Markazlashgan investitsiyalar: | 663,9 | 142,5 | 7,7 |
| budget mablag‘lari | 177,2 | 72,4 | 26,7 |
| Suv ta’mintoni tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | - | - | 0,0 |
| tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari | - | - | 0,0 |
| hukumat kafolati ostida chet el kreditlari | 486,7 | 298,2 | 73,3 |
| Markazlashmagan investitsiyalar: | 8 011,4 | 278,8 | 92,3 |
| korxonalarining o‘z mablag‘lari | 754,6 | 91,1 | 9,4 |
| aholi mablag‘lari | 569,3 | 112,3 | 7,1 |
| to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar | 6 617,8 | 445,0 | 82,6 |
| tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari | 69,7 | 125,4 | 0,9 |

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar, tarkibi % da

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Markazlashmagan
moliyalashtirish manbalarini
hisobidan investitsiyalar,
tarkibi % da**

**O‘tgan yilning mos
davrige nisbatan,
% da**



2024- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

| | <i>jami</i> | <i>davlat</i> | <i>nodavlat</i> |
|------------------------------------------------------------------------------------|----------------|---------------|-----------------|
| Jami, mldr. so‘m | 8 675,3 | 323,3 | 8 352,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| qurilish-montaj ishlari | 2 738,3 | 102,2 | 2 636,1 |
| mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari | 5 226,0 | 194,6 | 5 031,4 |
| Boshqa xarajatlar | 711,0 | 26,5 | 684,5 |

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlaring ulushi 21,8 % li punktga ko‘payganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati ulushi 21,7 % li punktga ko‘payganligi va boshqa xarajatlarning ulushi 9,0 % li punktga ko‘payganligini ko‘rsatmoqda.

2024- yilning yanvar-mart oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 663,9 mldr. so‘mlik investitsiya mablag‘lari kiritilib, bu ko‘rsatkich jami investitsiyalarning 7,7 % ni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish

sur'ati 142,5 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 8 011,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 92,3 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 278,8 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 754,6 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 9,4 % o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 569,3 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 7,1 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 486,7 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 298,2 % ga oshgan yoki jami investitsiyalarning ulushi 73,3 % ni tashkil etgan.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 69,7 mlrd. so'mlik mablag'lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiyligi hajmining 0,9 %), bu o'sish sur'ati 125,4 % ni tashkil etdi, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 6 617,8 mlrd. so'm (ulushi 82,6 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 445,0 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan investitsiyalar o'zlashtirilmadi, Viloyat budgeti 177,2 mlrd. so'm (ulushi 26,7%) usish sur'ati 72,4 %. Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilmadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar


Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qayta ishslash sanoatiga 218,1 mlrd. so'm (2,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga 67,7 mlrd. so'm (0,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga 238,9 mlrd. so'm (2,8 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 454,5 mlrd. so'm (5,2 %), tashish va saqlashga 109,1 mlrd. so'm (1,3 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashga 2 838,2 mlrd. so'm (32,7 %), shundan tabiiy gazni qazib olishga 2 279,4 mlrd. so'm (26,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyat turiga 411,3 mlrd. so'm (4,7 %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga 3 029,9 mlrd. so'm (34,9 %), suv ta'minoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 53,3 mlrd. so'm (0,6 %), qurilishda 223,8 mlrd. so'm (2,6 %), ulgurji va chakana savdoga 61,6 mlrd. so'm (0,7 %), axborot va aloqa 39,1 mlrd. so'm (0,5 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 87,4 mlrd. so'm (1,0 %), ta'limga 104,4 mlrd. so'm (1,2 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 41,7 mlrd. so'm (0,5 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 160,7 mlrd. so'm (1,9 %), moliya va sug'urta faoliyatiga 5,3 mlrd. so'm (0,1 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga 225,8 mlrd. so'm (2,6 %), turar-joy qurilishiga 293,6 mlrd. so'm (3,4 %) va boshqa faoliyat turlariga 10,9 mlrd. so'm (0,1 %) to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga
kiritilgan investitsiyalar va kreditlar
(umumiy hajmga nisbatan % da)**


■ 2023- yil yanvar-mart ■ 2024- yil yanvar-mart



**2024- yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**



**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 8,2 % korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi, shu bilan birga, To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 76,3 %, Respublika byudjeti hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 2,0 % ni tashkil etadi.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy
kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

| | <i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m</i> | <i>O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i> | <i>Umumiyl hajmdagi ulushi, %</i> |
|---------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------|
| Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan | 8 675,3 | 259,8 | 100,0 |
| Respublika budjeti | 177,2 | 72,4 | 2,0 |
| Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | - | - | - |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | - | - | - |
| O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari | 486,7 | 298,2 | 5,6 |
| Korxonalar mablag‘lari | 754,6 | 91,1 | 8,7 |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 69,7 | 125,4 | 0,8 |
| To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar | 6 617,8 | 445,0 | 76,3 |
| Aholi mablag‘lari | 569,3 | 112,3 | 6,6 |

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o‘sish sur’atlari O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari 6 617,8 mlrd. so‘m bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati 445,0 % ni tashkil etgan.

**Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalar, mlrd. so 'm**

| | <i>2023- y. yanvar- mart</i> | <i>2024- y. yanvar- mart</i> | <i>o'tgan yilning mos davriga o'sish sur'ati, % da</i> | <i>jami investitsiyalardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSH doll.</i> |
|-----------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 3 083,9 | 8 675,3 | 259,8 | 205 104,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Qarshi sh. | 419,8 | 542,8 | 107,1 | 5 076,3 |
| Shahrisabz sh. | 64,5 | 168,0 | 216,9 | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| G'uzor | 445,1 | 1 257,1 | 257,1 | 50,6 |
| Dehqonobod | 62,1 | 49,5 | 71,7 | - |
| Qamashi | 67,3 | 187,1 | 221,6 | - |
| Qarshi | 162,2 | 228,5 | 134,2 | 3 500,0 |
| Koson | 153,2 | 193,9 | 120,9 | - |
| Kitob | 150,2 | 168,2 | 96,3 | - |
| Mirishkor | 31,3 | 59,9 | 144,3 | 1 350,0 |
| Muborak | 725,1 | 2 136,4 | 288,3 | - |
| Nishon | 185,7 | 2 788,1 | 1 382,0 | 184 126,0 |
| Kasbi | 208,5 | 173,6 | 77,5 | 8 134,9 |
| Ko'kdala | 33,9 | 36,4 | 68,6 | - |
| Chiroqchi | 94,0 | 176,4 | 175,1 | - |
| Shahrisabz | 125,4 | 209,5 | 211,2 | - |
| Yakkabog' | 155,6 | 300,0 | 200,8 | 2 866,0 |

Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar

(2024- yil yanvar-mart oylarida)

| | <i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so‘mda</i> | <i>O‘sish sur’ati, % da</i> |
|-----------------------------|---------------------------------------------------------------------|---------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 2 430,9 | 254,1 |
| <i>shahrlar:</i> | | |
| Qarshi sh. | 1 831,8 | 116,8 |
| Shahrisabz sh. | 1 139,2 | 236,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| G‘uzor | 5 644,8 | 255,0 |
| Dehqonobod | 309,8 | 72,1 |
| Qamashi | 636,7 | 251,2 |
| Qarshi | 837,2 | 126,9 |
| Koson | 619,7 | 114,1 |
| Kitob | 595,3 | 101,3 |
| Mirishkor | 461,8 | 172,8 |
| Muborak | 22 824,5 | 267,4 |
| Nishon | 16 685,2 | 1 353,6 |
| Kasbi | 813,5 | 75,2 |
| Ko‘kdala | 192,2 | 96,4 |
| Chiroqchi | 656,8 | 168,6 |
| Shahrisabz | 889,5 | 151,7 |
| Yakkabog‘ | 1 059,7 | 174,4 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar Muborak tumani 22 824,5 ming so‘m, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o‘zlashtirilgan, G‘uzor tumani 5 644,8 ming so‘m, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o‘zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog‘liq.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m**

| | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m | <i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i> | | | | |
|---------------------------------|--------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|-----------------------------------|--------------------------|-------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| | | <i>Respublika budgeti</i> | <i>korxonalar mablag‘lari</i> | <i>aholi mablag‘lari</i> | <i>xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i> | <i>Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari</i> |
| Qashqadaryo viloyati | 8 675,3 | 177,2 | 754,6 | 569,3 | 7 104,6 | 486,7 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | |
| Qarshi sh. | 542,8 | 92,1 | 113,4 | 24,5 | 291,9 | 13,6 |
| Shahrisabz sh. | 168,0 | 7,2 | 15,7 | 22,9 | 117,4 | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| G‘uzor | 1 257,1 | 9,6 | 221,5 | 59,6 | 965,7 | - |
| Dehqonobod | 49,5 | 4,5 | 1,6 | 43,2 | - | - |
| Qamashi | 187,1 | 4,1 | 12,3 | 19,1 | 147,9 | - |
| Qarshi | 228,5 | 1,8 | 18,9 | 30,0 | 173,1 | - |
| Koson | 193,9 | 8,9 | 1,2 | 64,9 | 117,6 | 20,7 |
| Kitob | 168,2 | 6,1 | 36,5 | 62,2 | 62,4 | - |
| Mirishkor | 59,9 | 0,6 | 8,9 | 20,8 | 17,7 | - |
| Muborak | 2 136,4 | 1,6 | 244,1 | 37,4 | 1 852,9 | - |
| Nishon | 2 788,1 | 0,7 | 61,2 | 18,0 | 2 703,9 | 334,9 |
| Kasbi | 173,6 | 1,7 | 0,7 | 28,0 | 143,2 | - |
| Ko‘kdala | 36,4 | 13,2 | 1,3 | 21,8 | 0,1 | - |
| Chiroqchi | 176,4 | 15,4 | 3,1 | 64,6 | 92,3 | - |
| Shahrisabz | 209,5 | 6,0 | 8,3 | 18,6 | 163,6 | 38,8 |
| Yakkabog‘ | 300,0 | 3,6 | 5,8 | 33,7 | 255,0 | 78,8 |

davomi

| | Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m | <i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i> | | |
|-----------------------------|-----------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|-------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| | | Suv ta’minoti tizimlarini rivojlanТИRISH jamg’armasi | Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi | tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag’lari |
| Qashqadaryo viloyati | 8 675,3 | - | - | 69,7 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Qarshi sh. | 542,8 | - | - | 21,0 |
| Shahrisabz sh. | 168,0 | - | - | 4,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| G‘uzor | 1 257,1 | - | - | 0,6 |
| Dehqonobod | 49,5 | - | - | 0,4 |
| Qamashi | 187,1 | - | - | 3,6 |
| Qarshi | 228,5 | - | - | 4,6 |
| Koson | 193,9 | - | - | 1,2 |
| Kitob | 168,2 | - | - | 1,0 |
| Mirishkor | 59,9 | - | - | 11,9 |
| Muborak | 2 136,4 | - | - | 0,4 |
| Nishon | 2 788,1 | - | - | 4,3 |
| Kasbi | 173,6 | - | - | 0,1 |
| Ko‘kdala | 36,4 | - | - | - |
| Chiroqchi | 176,4 | - | - | 1,0 |
| Shahrisabz | 209,5 | - | - | 13,1 |
| Yakkabog‘ | 300,0 | - | - | 1,8 |

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish


2024- yilning yanvar-mart oylarida umumiy maydoni 201,3 ming kv.m. bo‘lgan 983 ta uy-joy qurilgan (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 104,5 %) shu jumladan, qishloq joylarda 116,2 ming kv.m, 561 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Noishlab chiqarish sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmidan 244,1 mlrd. so‘mi yoki 2,8 % i turar-joy qurilishida o‘zlashtirildi.

Umumta'lim maktablari va mакtabgacha ta'lrim muassasalari qurilishida 50,7 mlrd. so'm atrofida investitsiyalar o'zlashtirildi, bu noishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning 0,6 foizini tashkil qiladi.

Qurilish faoliyati. 2024- yilning yanvar-mart oylarida 2 072,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,7 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (umumiy hajmga nisbatan % da)




Qurilish ishlari umumiy hajmining 67,1 % ni binolar va inshootlarni qurishga, 18,4 % ni fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilishga 14,5 % ni ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariiga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 59,2 % ni yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to'g'ri keladi.

**Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining
o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



**Korxonalar turlari bo'yicha
qurilish ishlari hajmi, mlrd.so 'm**



■ 2023- yil yanvar-mart


■ 2024- yil yanvar-mart

Jami qurilish ishlaridan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 26,1 % ni tashkil etib, ulushi 4,9 % li punktga ko'paydi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasi 55,1 % ni tashkil etib, 5,7 % li punktga kamaydi, norasmiy sektorning ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jihatdan qayta quollantirish ishlari hajmi 1 227,9 mlrd. so'mni (ulushi 59,2 %) tashkil etdi. Kapital, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlari esa 844,8 mlrd. so'mni (ulushi 40,8 %) tashkil etdi.




**Yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm**

| | 2023- yil | 2024- yil | <i>o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i> | <i>Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da</i> |
|---------------------------------|----------------|----------------|-----------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 1 669,3 | 2 072,7 | 119,7 | 100,0 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | |
| Qarshi sh. | 505,9 | 640,7 | 122,9 | 30,9 |
| Shahrisabz sh. | 99,6 | 109,1 | 105,5 | 5,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| G'uzor | 176,7 | 222,6 | 121,4 | 10,7 |
| Dehqonobod | 36,7 | 44,2 | 114,5 | 2,1 |
| Qamashi | 39,5 | 43,9 | 106,6 | 2,1 |
| Qarshi | 121,3 | 135,2 | 107,6 | 6,5 |
| Koson | 99,8 | 119,9 | 114,8 | 5,8 |
| Kitob | 108,2 | 127,4 | 112,2 | 6,1 |
| Mirishkor | 18,1 | 29,8 | 157,6 | 1,4 |
| Muborak | 102,1 | 136,4 | 129,4 | 6,6 |
| Nishon | 60,5 | 97,7 | 156,4 | 4,7 |
| Kasbi | 45,0 | 50,0 | 105,8 | 2,4 |
| Ko'kdala | 9,3 | 10,5 | 106,8 | 0,5 |
| Chiroqchi | 142,3 | 169,9 | 114,9 | 8,2 |
| Shahrisabz | 34,6 | 57,9 | 160,8 | 2,8 |
| Yakkabog' | 69,6 | 77,5 | 106,5 | 3,7 |

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha qurilish ishlari hajmida Qarshi shahri 640,7 mlrd. so'm, G'uzor 222,6 mlrd. so'm, Chiroqchi 169,9 mlrd. so'm va Muborak 136,4 mlrd. so'm hajmli tumanlar yuqori ulushlarga ega.

**2024- yilning yanvar-mart oylarida
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari**



Hisobot davrida bajarilgan qurilish ishlaringin yuqori o'sish sur'ati Shahrisabz tumani (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 160,8 %), Nishon tumani (156,4 %), Karshi shahri (122,9 %) va Mirishkor (157,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan qurilish ishlari hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Muborak tumani 1457,6 ming so'm, o'sish sur'ati 126,7 %), Qarshi shahri (2162,4 ming so'm yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 119,5 %), G'uzor tumani (999,5 ming so'm, o'sish sur'ati 118,8 %) hamda Shahrisabz shahar 739,5 ming so'm, o'sish sur'ati 103,9 %) qayd etildi.




**Aholi jon boshiga qurilish ishlari
(2024- yil yanvar-mart oylarida)**

| | <i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi, ming so‘mda</i> | <i>O‘sish sur’ati, % da</i> |
|-----------------------------|----------------------------------------------------------------------|---------------------------------|
| Qashqadaryo viloyati | 580,8 | 117,1 |
| <i>shaharlar:</i> | | |
| Qarshi sh. | 2 162,4 | 119,5 |
| Shahrisabz sh. | 739,5 | 103,9 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| G‘uzor | 999,5 | 118,8 |
| Dehqonobod | 276,7 | 113,9 |
| Qamashi | 149,3 | 104,7 |
| Qarshi | 495,4 | 104,9 |
| Koson | 383,3 | 113,1 |
| Kitob | 450,8 | 111,2 |
| Mirishkor | 229,6 | 155,1 |
| Muborak | 1 457,6 | 126,7 |
| Nishon | 584,6 | 152,1 |
| Kasbi | 234,4 | 104,8 |
| Ko‘kdala | 55,4 | 299,1 |
| Chiroqchi | 632,5 | 107,5 |
| Shahrisabz | 245,9 | 158,7 |
| Yakkabog‘ | 273,8 | 105,2 |




**2024- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar turlari bo‘yicha
qurilish ishlari hajmi,
(umumiylajmga nisbatan % da)**



Yirik korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yuqori ko‘rsatkichlari Muborak (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,2 %), Shahrisabz shahar (ulushi 45,5 %), G‘uzor (ulushi 42,6 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari ulushi,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami qurilish hajmidan eng yuqori ulushni Qarshi shahrida 30,9 % ni, G'uzor tumanida 10,7 % ni va Chiroqchi 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyat miqyosida qurilish ishlari hajmida eng past ulushlar Ko'kdala (0,5 %), Dehqonobod (2,1 %) va Mirishkor (1,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.